

ABDULLA QODIRIYNING KICHIK ASARLARIDA OKKAZIONAL YASALMALAR VA DAVR NEOLOGIZMLARI

Matqurbonova Muhabbat Shokirovna

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

erkin tadqiqotchisi

e-mail: muhabbat68@mail.ru

tel: (97) 513-94-87

Annotatsiya. Maqolada buyuk adib Abdulla Qodiriyning kichik asarlari matnida qo'llangan okkazional yasalmalar va neologizmlarning leksik-semantik, grammatik xususiyatlari o'rganilgan. Bunday leksik birliklarning kichik asarlar matnida uslubiy vosita sifatida badiiy nutq va uslub shakllanishidagi o'rni ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: chegaralangan leksika, okkazionalizm, neologizm, umumtil neologizmi, adabiy norma, anormal, binar oppozitsiya, morfologik struktura, kalkalash, grammatik shakl.

СЛУЧАЙНЫЕ ТВОРЕНИЯ И ПЕРИОДИЧЕСКИЕ НЕОЛОГИЗМЫ В НЕБОЛЬШИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АБДУЛЛЫ КАДИРИ

Маткурбонова Мухаббат Шокировна

Соискатель Ташкентского государственного университета

узбекского языка и литературы

e-mail: muhabbat68@mail.ru

tel: (97) 513-94-87

Аннотация. В статье рассматриваются лексико-семантические и грамматические особенности окказиональных образований и неологизмов, используемых в тексте небольших произведений великого писателя Абдуллы Кадыри. Научно проанализирована роль таких лексических единиц в тексте небольших произведений как методического средства формирования художественной речи и стиля.

Ключевые слова: ограниченная лексика, окказионализм, неологизм, универсальный неологизм, литературная норма, аномальная, бинарная

оппозиция, морфологическая структура, сопоставление, грамматическая форма.

THE OCCASIONAL CREATIONS AND PERIODICAL NEOLOGISMS IN ABDULLA QADIRI'S SMALL WORKS

Matqurbonova Muhabbat Shokirovna

Independent reasercher of Tashkent State University
of the Uzbek Language and Literarture

e-mail: muhabbat68@mail.ru;

tel: (97) 513-94-87

Annotation. The article examines the lexical-semantic and grammatical features of occasional formations and neologisms used in the text of the great writer Abdulla Qadiri's small works. The role of such lexical units in the text of small works as a methodological tool in the formation of artistic speech and style has been scientifically analyzed.

Keywords: *limited lexicon, occasionalism, neologism, universal neologism, literary norm, abnormal, binary opposition, morphological structure, collation, grammatical form.*

Kirish. Okkazional birliklar soʻz yasashida umumiy qoida va andozalardan chekinish, gʻayriodatiy yasash qoliplari asosida yuzaga kelgan yasalmalardir. Mazkur lisoniy hodisaga “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da “*okkazionalizm* – umumisteʼmolga muvofiq kelmaydigan, individual tarzda maʼnoga ega boʻlgan til birligi” deb taʼrif berilgan [4;103]. Shoir yoki yozuvchining badiiy tilida xalq lahja va shevalari, individual ijod mahsuli boʻlgan okkazional yasalmalarni lisoniy vosita sifatida qoʻllanishiga oid ilmiy-nazariy muammolar oʻzbek tilshunosligida bir qadar oʻrganilgan [2;22]. Neologizm va okkazionalizmlar badiiy tilda yozuvchining soʻz ijodkorligini, bu orqali uning individual uslubi va tilini namoyon qiluvchi dalillardan biridir. Bunday birliklarni yaratish va ularni nutqda qoʻllashning ham maʼlum chegarasi mavjud boʻlib, bu xususiyatni umuman muayyan til normasi, xususan, adabiy meʼyor tartibga soladi.

Adabiyotlar tahlili. Okkazional birliklarning lisoniy tabiati, uslubiy qo‘llanishi haqidagi tilshunos O.To‘xtasinovning quyidagi ilmiy xulosalari ahamiyatli sanaladi: “Okkazionalizm bilan norma tushunchasi binar oppozitsiyada ikki tomonlama zidlanish munosabatida bo‘ladigan hodisalardandir. Ular bir-birini ham inkor qiladi, ham taqozo etadi. Ularning bir-birini inkor etishi shundaki, norma bor joyda okkazionalizm yo‘q, okkazionalizm bor joyda norma yo‘q. Demak, okkazionalizm – anormal. Masalan, *ammavachcha*, *amakivachcha* – norma. Ular okkazionalizm emas, *oybachcha* esa anormal. Bu so‘z okkazionalizmdir. Norma okkazionalizmlarni ma’lum me’yorga solib turuvchi, uni chegaralovchi vositadir. Chunki norma bo‘lmasa, har bir ijodkor shaxs o‘zi xohlaganicha so‘z yaratib, til hamma uchun tushunarli hodisa ekanligidan chetga chiqib ketishi mumkin. Norma ana shunga barham beradi va tilning turg‘unligi, ommaviy tushunarligini ta’minlab turadi” [1;20]. Xulosadan anglash mumkinki, neologizm va okkazionalizmlar nutq egasining so‘z yasash, so‘z ijod qilishdagi shaxsiy malaka va mahoratining mahsuli sifatida umumiste’moldagi leksika tarkibiga kirmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Badiiy nutq va uslubdagi neologizmlar tilda adabiy norma sifatida qabul qilinishi yoki qilinmasligi mumkin, buning natijasi terminologik leksikada oydinlashadi. Okkazionalizmlar esa ijodkorning individual uslubigagina xos lisoniy hodisa sifatida adabiy tilda qo‘llanmaydi. Shunga asoslangan holda maqolada Abdulla Qodiriyning kichik asarlari matnida qo‘llangan neologizm va okkasionaizmlarni chegaralangan leksika nomi ostida tahlil qilishni lozim topdik.

Tahlillar va natijalar. Kuzatishlarimiz Abdulla Qodiriyning kichik asarlarida uchraydigan okkazionalizmlarning barchasi derivativ, ya’ni affiksatsiya va kompozitsion usulda noodatiy yasalgan lisoniy birliklar ekanligini ko‘rsatdi. Muallif publitsistik maqolalari, hajviya va felyetonlarida tildagi mavjud yasalish andozalariga to‘g‘ri keladigan, lekin o‘zbek tili so‘z yasash me’yoriga mos kelmaydigan okkazional birliklarni ham qo‘llagan: “*Qorong‘ida timirskilanib*

zanjirni topdi. Taajjublandi, chunki zanjir ochiq edi. **Mashaqqatlanib** tomga chiqib yugurganiga **pushaymonlandi**” [3;67]; “Agarda darkor boshad lofni **gazetchilar** ursin, adovat donasini **ahmoqchilar** sochsin!” [3;311]; “Jasorat **bug‘magarlarining** oyoqlaro osmondan, til qassoblarining manfur gavdalari jahannam tegidan keldi” [3;148]. O‘zbek tili so‘z tasalish tizimida *-lan* affiksining otdan fe‘l yasashi mumkin holat, biroq mavhum otlar *mashaqqat*, *pushaymon* leksemalariga yasovchi vosita sifatida qo‘shilib fe‘l yasashi kuzatilmaydi. Shuningdek, shaxs oti yasovchi *-chi* morfemasining ham *gazeta*, *ahmoq* so‘zlariga qo‘shilib yangi yasalmanni hosil qilishi norma sifatida uchramaydi. Demak, bu yasalmalar muallifning individual uslubiga xos yasalishlar natijasidagi okkazional birliklardir. Asarlar matnida bunday g‘ayriodatiy yasalmalar murakkab tarkibli so‘z yasovchilar ishtirokida ham hosil qilingan: “Berdisiga tushunmay qiling‘an **o‘pkavorlikdan**, shovqin-surondan bir mirlik natija chiqmas” [3;203]; “Tinchgina **imomgarchilikda** davom etila boshlandi” [3;121]; “**Hukumatchilik** bo‘lgandan keyin kishining tili qisiq bo‘lib, churq etalmas ekan...” [3;216]. Matndagi *o‘pkavorlik*, *imomgarchilik*, *hukumatchilik* yasalmalari an‘anadagi so‘z yasash qolipi asosida o‘zakka *-vorlik*, *-garchilik*, *-chilik* murakkab ot yasovchi qo‘shimchalar bilan hosil qilingan bo‘lsa-da, yasalgan otlar nutqiy hodisa sanalib, tilga singmagan.

Derivativ okkazionalizmlarning kompozitsion usulda yasalganlari ham uchraydi: “Jahli basit **izzatmandlaridan** ikki peshovning masjid **jilovxonasida** tipillashlaridan bu bir namuna” [3;279]. *Izzatmand* leksemasi lug‘atlarda uchramaydi. Muallif bu so‘zni salbiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan “o‘zining izzat-hurmat qilinishini yaxshi ko‘ruvchi, nafsoniyati zo‘r; manman kishi ma’nosini ifodalovchi – izzattalab” [4;180] so‘ziga ma’nodosh sifatida o‘zi yasagan leksik birlikdir. *-xona* affiksoidi bilan yasalgan *jilovxona* leksemasi ham muallifning shaxsiy, individual qo‘llashi hisoblanadi. Kichik asarlarda uchraydigan *doruljunun* [3;136], *moshxo‘rdanoma* [3;245], *stajfurush* [3;207], *g‘ayrimumkin* [3;83] leksemalari ham kompozitsion usulda g‘ayriodatiy yasalgan, til lug‘at fondiga o‘tish imkoniyati cheklangan, nutqiy yasalma sifatida ma’nosi kontekstdagina

reallashgan, tasodifiy qo'llanish chegarasida yuzaga kelgan hamda adabiy til uslublarida qo'llanishi chegaralangan okkazionalizmlar sirasiga kiradi.

Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda yuz beradigan o'zgarish va yangilanishlar avvalo tilda, aniqrog'i terminologik leksikada o'z aksini topadi. Bu o'zgarishlar ta'sirida yangi paydo bo'lgan tushuncha va tasavvurlarni tilda ifodalash zaruriyati tufayli yangidan leksema yaratiladi yoki mavjud leksema sememasiga qo'shimcha sema yuklatiladi. Bu ikki holatdan tashqari, o'zlashma leksema yangi so'z sifatida leksik tarkibga o'z holicha qabul qilinishi ham mumkin. Mana shu jarayonda tilda yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan leksema paydo bo'ladi, fanda bunday birliklarga nisbatan *neologizm* (yunoncha *neos* – “yangi”) termini ishlatiladi. Neologizm hodisasi nisbiy tushuncha hisoblanadi. Chunki, har qanday til tadrijiy taraqqiyotining har bir bosqichi o'z neologizmiga ega bo'ladi, bir bosqichda neologizm deb qaralgan hodisa ikkinchi bosqichda ham neologizm deb hisoblanmaydi. Shu nuqtayi nazardan biz tadqiq etayotgan Abdulla Qodiriyning kichik asarlari matnidagi yangi so'zlarga ham XX asrning 20-30-yillaridagi davr neologizmlari deb qarash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu leksik qatlam birliklari adabiy tilning barcha funksional uslublarida baravar qo'llanmaganligi va barcha uchun tushunarli biri xilda bo'lmaganligi, umuman olganda, keng ist'emolda ishlatilmaganligi uchun ularni chegaralangan leksika tarkibida tadqiq etishni lozim ko'rdik.

Neologizm tilga umuman mansub bo'lishi yoki yakka shaxs nutqiga xos bo'lishi mumkin. Birinchisi umumtil neologizmi deb, ikkinchisi individual nutq neologizmi deb yuritiladi. Leksemikada asosan umumtil neologizmi o'rganiladi. Individual nutq neologizmi uslubga xos hodisa deb qaraladi. Har qanday neologizm dastlab individual nutqda yuzaga keladi. Bunday neologizm ko'pchilik tomonidan tan olinsa, tilning taraqqiyot qonunlariga mos holda hosil qilingan bo'lsa va tilda ma'lum ma'noni anglatish uchun zarur deb qaralsa, shundagina umumtil neologizmiga aylanadi, yakka nutq doirasidan chiqadi. Agar bunday talablarga javob bermasa, individual nutq doirasida qolib ketadi. Umumtil

neologizmi tilda ma'lum vaqt ishlatilganidan keyin yangilik bo'yog'ini yo'qotadi va ko'pincha odatdagi, zamonaviy leksemaga aylanib ketadi [5;87].

Kichik asarlar matnida qo'llangan neologizmlarning aksariyati yuqoridagi kabi umumtil neologizmlari hisoblanib, ularning hosil qilinishi, yaratilishidagi lisoniy belgilar, xususiyatlar asosida quyidagicha guruhlash mumkin:

1) Tildagi mavjud leksik birliklar va grammatik qonun-qoidalar asosida yasalgan neologizmlar: “*Girmoniya to‘b to‘pxona, urush aslahalrini ishlaydir. Osmon popurini ham shu kofir chiqarg‘an*” [3;115]; “*23-aprel devorda “Rohat boqchasi”da bo‘laturg‘on “Qiziq kechasi”ning O‘ratepaning sufrasidek bashoratnomasini (afishasini) ko‘rdim*” [3;231]; “*Bir vaqtlarda atoqli bir lo‘ttichi turli lo‘ttilar (fo‘kslarni) ko‘rsatar edi*” [3;106]. Misollarda ajratib ko‘rsatilgan neologizmlarni tahliliy o‘rganaylik. O‘sha davrda tilda yangi tushuncha ifodalagan *samalyot* o‘zlashma leksemasiga muqobil tarzda qo'llangan *osmon popuri* leksemasi kompozitsion usulda yasalgan bo'lsa; *komediyali spektakl* tushunchasini ifodalash uchun qo'llangan *qiziq kecha* birikmasi leksemalarning hokim-tobe bog‘lanishi asosida yuzaga keltirilgan. “Spektakl, konsert, ma’ruza haqida ko‘rinarli joylarga yopishtiriladigan e’lon tushunchasini ifodalovchi – *afisha*” [4;117] so‘ziga muqobil tarzda qo'llangan *bashoratnoma* leksemasi “biror voqea-hodisaning natijasini oldindan ko‘rish, aytib bera olish” ma’nosini ifodalovchi – *bashorat*” [4;184] leksemasiga *-noma* affiksoidini qo‘shish orqali yasalgan. “Ko‘z ilg‘amas darajadagi chaqqonlik, mohirlik bilan qilinadigan, g‘ayritabiiyligi bilan tomoshabinlarni hayratga soladigan hiyla ma’nosini ifodalovchi – *fokus*” [4;354] leksemasining muqobil tarzda neologizmi esa “axloqsiz, shum, ayyor. *Esk. qo‘g‘irchoqlar o‘ynatib o‘yin ko‘rsatish*” [4;515] ma’nosini ifodalovchi – *lo‘tti* so‘ziga *-chi* shaxs-oti yasovchisini qo‘shish bilan yasalgan. Demak, bu neologizmlar o‘zbek tilidagi avvaldan mavjud leksemalar ishtirokida, so‘z yasallishdagi grammatik qonun-qoidalar asosida yuzaga keltirilgan lug‘aviy birliklardir.

2) Tildagi mavjud so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini o‘zgartirish asosida yuzaga kelgan neologizmlar: “ – *Mehmoningiz, ya’ni To‘ychiboyev, – dedi*

og'zidan tutun burqitgan Xoldorov, – nega zavodni sakkiz kundan buyon, sizga mehmon bo'lib yotadi? – Bir oylik **istirohat** olgan, - dedi Zuhurov" [3;440]; "...Devor ostida qora bir sigir bo'g'lanib turmoqda, hovli o'rtasidagi yog'och **katda** birov uxlab yotmoqda..." [3;445]. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "istirohat so'zining – dam olish, hordiq chiqarish" ma'nosini anglatishi aytilgan [4;238]. Muallif ruscha o'zlashma neologizm hisoblangan, "ketishga ruxsat bermoq, bo'shatmoq, bo'sh qo'ymoq ma'nosini anglatuvchi – *otpusk*" [4;158] so'ziga muqobil tarzda bu leksema anglatgan ma'noni *istirohat* leksemasiga yuklagan. Hozirda esa *otpusk* so'zining muqobil varianti sifatida "dam olish, davolanish uchun ishdan ozod qilib beriladigan ma'lum kunlar ma'nosini anglatuvchi – *ta'til*" [4;31] leksemasi adabiy tilda me'yor sifatida qabul qilingan. Ikkinchi misoldagi "*kat* so'zi– taxt; keng yog'och kursi" ma'nolarini anglatadi [4;331]. Matnda esa *kravat* tushunchasini ifoda etishga bo'ysundirilgan.

3) O'zlashma leksik birliklarni kalkalash yo'li hosil qilingan neologizmlar: "Agar Toshkand maorifi bilan ko'rishmakchi bo'lsangiz, **muzayi milliyamizga** marhamat qilingiz, dedim" [3;155]; "“Turkiston” ko'z ko'rib, qo'l tutkundek **baynalxalq** katta bir gazeta bo'libdir" [3;252]. Bu yerda *национальный музей* o'zlashama birikmasi *muzayi milliyya* (hozirda *milliy muzey* shaklida qo'llanmoqda) shaklida, *baymalmilal* leksemasi esa *baynalxalq* tarzida kalkalash yo'li bilan hosil qilingan neologizmlardir.

4) O'zlashma leksik birlikning fonetik tuzilishi, morfologik tarkibiga o'zgartirish kiritish orqali hosil qilingan neologizmlar: "Qayg'usig'a chidalmagan artistlardan ikkisi ibtido parda ochilishidan o'pkalarini tutolmay xalqg'a orqa berib **istinag'a** salom berib to'xtadilar" [3;132]; "Ozingizga doimul-avqot foyda ciqub turmoq uchun qishloq mushtumzo'rlarini ham hech narsadan qaytmaydirg'an **bo'lis** va ovul ijroqo'mlarini himoya qilingiz!" [3;407]; "Iste'mol qiluvchilar bu do'konlarini tashlab to'g'ridan-to'g'ri **o'ptovoy** sotuvchi savdogardan yoki to'g'ri fabrikadan mollarini olmoqdalar" [3;69]. Misollardagi *istina*, *bo'lis*, *o'ptavoy* leksemalari *сцена* (*sahna oldi*), *волость* (*ma'muriy-hududiy bo'linma*), *онтовый* (*ulgurji*) ruscha o'zlashmalarning fonetik tuzilishi,

morfologik tarkibi o'zgartirilib qo'llangan davr neologizmlari hisoblanadi. Bunday qo'llanish *gazarma* [3;244], *tiyotru* [3;233], *gaznit* [3;283], *targovska* [3;376], *minovat* [3;302], *zakun* [3;308], *kavantir* [3;360], *prosant* [3;69], *istatistika* [3;136], *iftrogovoy* [3;154] kabi neologizmlarda ham kuzatiladi.

5) Neologizm hisoblangan o'zlashma leksik birlikning aynan qo'llanishi: "...Qonxo'r Nikolay va uning dumlarining bizga qilg'an zulm va vahshati va ul xoin-zolimning **oxrannik va politsiyalarining** bizga qilga'n jabr-zulmi ko'b... [3;224]; "Kapitalistlarning o'z oralarinda bo'lgan **konkurensiya** mol bahosin ixtiyorsiz bir oz tushurmoqg'a majbur qiladur" [3;67]; "Xalq qozixonasida **rech** aytkan "jujunay so'fi" og'amizning so'zi nah bizning muddaomiz edi" [3;216].

Xulosa. Kichik asarlar matnidagi nutqiy hodisa mahsili bo'lgan g'ayriodatiy, okkazional qo'llash va yasalişlar tildagi barqarorlik, doimiylik, odatiylik, maromlilik hamda shaxsiy-ijodiylik o'rtasidagi uzviy ziddiyatning o'ziga xos ifodasi sifatida namoyon bo'lgan. Muallif asarlaridagi bu hodisa XX asr boshlaridagi davr adabiy tilining so'z yasalişhi tizimida yuz bergan o'zgarishlaru yangilanishlarni, ma'noviy-uslubiy tovlanishlarni aniqlashga imkon beradi. Tahlilga tortilgan okkazionalizmlardan muallif shaxsiy-ijodiy, matniy-uslubiy hodisa, nutqiy-uslubiy vosita sifatida asarlari tilining funksional-stilistik imkoniyatlarini oshirishga erishgan.

Tahlilga tortilgan neologizmlarning kichik asarlar tilida bajargan uslubiy vazifasi ham rang-barangdir. Muallif tomonidan qo'llangan ilmny-texnik, rasmiy adabiyotlardagi umumtilga xos neologizmlar asosan nominativ funksiyani bajargan bo'lsa, ayrimlari kichik asarlar matnida badiiy vosita sifatida muayyan stilistik maqsadga yo'naltirilgan. Bundan tashqari, neologizmlarning ba'zisi muallifning xajviy asarlarida katta ta'sir va tasvir kuchiga ega bo'lgan vosita sifatida individual nutqqa taalluqlidir. Yani adib ijod qilgan yangi so'zlar – nutq neologizmlari sifatida kichik asarlar matnida ba'zan satirik tasvir vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол.. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 27 б.

2. Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 22 б.

3. Абдулла Қодирий. Диёри бакр. Танланган асарлар. V жилдли. III жилд. (нашрга тайёрловчи Хондамир Қодирий). – Тошкент: Info Capital Group, 2017. – 566 б.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Давлат илмий нашриёти, 2020.

5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2066. – B.87.